

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА РИВОЈЛАНИШ МАРКАЗЛАРИДА БОЛАЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЕТИШНИНГ О'ЗИГА ХОСЛИГИ

Ro'ziyeva Nafisa Qurbonovna

*Buxoro pedagogika kolleji. "Maktabgacha ta'lim" kafedrasи
Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish
o'quv amaliyoti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarining rivojlanishi, qanchalik e'tiborga molik va muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tematik vazifa, reja, didaktik material, o'yin uskuna, qurilish, syujetli o'yinlar, til, nutq, san'at.

Annotation: In this article, the development of development centers in pre-school educational organizations is given information about how significant and important it is.

Keywords: thematic task, plan, didactic material, game equipment, construction, plot games, language, speech, art.

Аннотация: В данной статье развитию центров развития в дошкольных образовательных организациях дана информация о том, насколько оно значимо и важно.

Ключевые слова: тематическое задание, план, дидактический материал, игровой инвентарь, построение, сюжетные игры, язык, речь, искусство

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "**Zamonaviy maktabgacha ta'lim sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim o'rinn tutadi**" deya ta'kidlaydi.

Respublika Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini tadbiq qilish imkononi beradi. 2019-yil 8- maydag'i PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, 2019 yil 13 maydagi 391-sod «Maktabgacha ta'lim muassasalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019 yil 11 iyundagi 487-sodli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga muvofiq yangi tizim yaratildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk qadam" davlat dasturi asosida rejalshtiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda rivojlanish markazlarini tashkil etishning asosiy sharti pedagogdan tayyor bilim olishdan ko'ra, bolaga rivojlanish markazlarida faoliyatni tanlash imkoniyatini berish, bunda u atrofdagi dunyo haqida bilimlarni mustaqil ravishda egallashi, ko'nikmalarini va qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaga qiziquvchanlik, mustaqil izlanish, tadqiqot jarayoniga qo'shilish imkoniyatini berishdir. Rivojlanish markazlari ta'lim, rivojlantiruvchi, o'qitish, rag'batlantiruvchi, uyushgan, kommunikativ funksiyalarni bajarishi kerak. Eng muhim, ular mustaqillikni rivojlantirish ustida ishslashlari kerak, bolalar va kattalar o'rtafigi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan bolaning tashabbusini rag'batlantirishi kerak.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari – bola o'z rivojlanishi uchun eng ahamiyatli sohalarda va jihatlarda kattalar va tengdoshlar bilan keng hissiy-amaliy o'zaro muomala tajribasini oladigan joydir, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola o'z ehtiyojlari, qobiliyatlarini va imkoniyatlariga muvofiq holda individual rivojlanishiga bo'lgan huquqini shu jarayon uchun tashkiliy-pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiradi; pedagog o'zining kasbiy va shaxsiyat fazilatlarini rivojlantiradi, rahbar, bolalar va pedagoglar faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lismi ta'minlaydi; muassasa ota-onalarning o'z bolalari uchun ko'zda tutgan kelajagi yuzasidan fikrlari xususiyatlarini inobatga oladi va ularni bolalar bilan, hamda ta'limiy jarayonning barcha ishtirokchilari bilan konstruktiv-hamkorlik munosabatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltiradi. Bugungi kunda ta'lim sohasida turli xususiyatdagi, yo'nalishdagi va ahamiyatdagi nihoyatda ko'p innovatsiyalar mavjud, katta yoki kichik ko'lamli davlat islohotlari o'tkaziladi, ta'limning tashkil etilishiga, mazmuniga, uslubiyotiga, texnologiyasiga yangiliklar kiritiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiya bu bolalarni vositalar yordamida ta'lim materiallarini o'rGANISH orqali nutqini rivojlantirish, o'z fikrni erkin bayon eta olish, o'zaro muloqot, tevarak-atrof bilan tanishish jarayonini yangicha talqin etishdir. Ma'lumki, Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishdan asosiy maqsad ularn sog'lom, barkamol shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarini amaliyotga joriy etish usullaridan foydalanish ijobiy natija beradi. Ta'lim-tarbiya

tizimi markazida bola shaxsi turib, uning rivojlanishi va tabiiy salohiyatini tatbiq etish uchun qulay, bexatar va nizosiz sharoitlar yaratilishi ko'zda tutiladi. Insonparvar shaxs texnologiyalari bu texnologiyalar bolaga hurmat va muhabbatni, uning ijodiy kuchlariga optimistik ishonchni targ'ib qiladi, majburlashni man etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini yuqori saviyada tashkil etish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tarbiyachi mashg'ulot uchun berilgan vaqtidan unumli foydalanishi, turli texnologiyalar, usul va metodlardan foydalanib turli mashg'ulotlarni o_tishi, tarbiyachi bu tajribalarni puxta o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababali ham tarbiyachi mashug'lotlarni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar qilish va turli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda innovatsiyalardan foydalaninib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish talab etiladi va tavsif beriladi. Tarbiyachi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak. Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda avvalo shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, tarbiyachilar bir xil yoshdagи bolalarning qobiliyatları va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerakligini mutaxassislar alohida ta'kidlashadi.

"Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlari faoliyati yuritilishi nazarda tutiladi: - Qurish konstruksiyalash va matematika markazi , Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi , Til va nutq markazi, Ilm-fan va tabiat markazi, San'at markazi, Musiqa va ritmika markazi. Rivojlanish markazlari bolalarga o'zlarining shaxsiy ko'nikmalarini va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonini mustaqil individualallashtirish imkoniyatini beradi. Tarbiyachi-pedagoglar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini o'ynaydilar, mashg'ulotlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'min etadilar va har bir bola individual rivojlanishi darajasini egallay olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli mashg'ulot turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida yakka tartibda (individual) yoki mustaqil (ular tomonidan tanlagan mashg'ulotlarga vaqt ajratish kerak, chunki bolalar ongli tanlab olishni o'rganadilar, o'z qiziqish va qobiliyatlarini amalga oshiradilar). Bolalarning o'z

tanlovlarini amalga - oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilichlari lozim. Faollik markazlarini tashkil etish va rahbarlik guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini beradi. Har bir guruuhda 5 ta markazlar bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi. Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi legolar, mozaika, qurish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar buniyod etadilar: misol uchun ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, garajlar, ferma va shu kabilar. Qurish-yasash bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni hal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalg etishni o'rganish mumkin. Guruh xonasidan moslashuvchan va o'zgaruvchan tarzda foydalanish talab etiladi. Rivojlanish markazlaridagi tematik, didaktik materiallarlar bolaning ehtiyojlari va manfaatlarini qondirishga xizmat qilishi kerak. Markazlarning dizayni estetik, bolalar uchun jozibali bo'lishi kerak, va mustaqil faoliyatga bo'lgan istakni keltirib chiqarishi kerak. Guruh xonasida rivojlanish markazlarini yaratishda o'yin faoliyatining yetakchi rolini hisobga olish kerak. Rivojlanish markazlaridagi jihozlar xavfsiz va didaktik materiallarlar bolaga tegishli bo'lishi va bolalarning yoshiga mos bo'lishi kerak. Rivojlanish markazlaridagi didaktik materiallarlar tematik vazifalarni hisobga olgan holda o'zgarishi kerak. Markazlarni uskunalar bilan ortiqcha jihozlamaslik zarur. Rivojlanish markazlari bolalar va kattalar bilan aloqa qilish va birgalikdagi faoliyatni, shuningdek o'z o'zi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlashi kerak. Tematik rejalashtirishga ko'ra, pedagog rivojlanish markazlarini didaktik materiallarlar va o'yin uskunalari bilan ta'minlash ustida o'ylashi va to'ldirishi kerak. Markazlarni bolalar va pedagoglarning birgalikdagi faoliyati va hunarmandchilik mahsulotlari bilan to'ldirish mumkin. Har bir markazning maqsadiga muvofiq haftaning boshida pedagogning tematik rejasiga binoan, materiallarlar tayyorlanadi va jihozlanadi.

Markazlardagi faoliyatlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, til va nutq markazida bolalarning do'stlari orasida o'z fikrlarini bera olishlari, mavzu asosida hikoyalar tuzish, savol-javoblar qilish, bolalarga suhabatlar tashkil etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bola markazda o'zi xohlagan mavzusida hikoyalar tuzishi ham mumkin.

Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalarda sensor tarbiya, ijodkorlik rivojlanadi. Bola bir vazifani bajarishi orqali ham qurish -yasash ham matematika bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bolalarni o'yin jarayonida tinglansa "Menga yashil rang kerak", "Men yasagan uycha ikki qavatli", "Seniki kichkina, meniki esa kattakon", "Meni mashinamga 10 ta odam sig'adi" degan

jumlalarni eshitasiz. Demak bolalarning muloqatida qo'shish, ayirish, taqqoslash, kattalik kabi ilk matematik tasavvurlar kengayib boradi.

San'at markazida bolalarni kayfiyatini ko'tarish imkonи mavjud. Bolalarning ijodiy qobiliyatлari qo'llab-quvvatlanadi. San'atning rassomlik, haykaltaroshlik, turlariga hammaga ham bir xil iqtidor berilmagan. Shu sababli bunda faqat iqtidorli bolalar ishtirok etadi. Markaz kerakli jihozlar bilan to'liq ta'minlansa, yasash, chizish texnologiyalari ertalabki, kechki soatlarda o'rgatilsa, markaz ishi rivojlanadi. Oilada bolaga bunday sharoit har doim ham yaratib berilmaydi. Markazda ishlasa bolaning mayda motorikasi rivojlanadi. Mayda motorikaning rivojlanishi esa, bola nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz bolalar iqtidorini namoyon bo'lishi, o'z mahoratini ko'rsatishi uchun juda qulay muhitdir. Bu markazni bolaning "Men"ini shakllantiruvchi markaz deb ham atash mumkin. Markazdagi barcha jihozlar bolalar hayotida uchraydigan jihozlar bo'lib, o'yin jarayonida bola ulardan foydalanishni o'rganadi, kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. O'yinda oila a'zolarining o'zaro munosabatlari aks etadi va ular orqali ahloqiy tarbiya olish (tarbiyachi uchun esa oiladagi muhitni o'rganish) imkonи yaratiladi.

Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug'unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi. Maktabgacha ta'lim tizimida har bir bola o'ziga kerakli ko'p ma'lumotlarni oladi, chunki, bola yosh va savollarga boy zabon bo'ladi, u har bir savoliga to'g'ri javob olishi esa uni kelajagiga kata ko'mak bo'ladi. Har bir maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni ongini rivojlanishiga, iqtidorlarini ochishga yordam berib, ko'maklovchi resurslar mavjud bo'lishi lozim. Nafaqat rivoji, balki, uning sog'lomligi ham birinchi o'rinda turadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir. Bolalarni rivojlantiruvchi markazlarda faoliyat yuritishlari ularni mакtab ta'limiga tayyorlashda har tomonlama yetuk aqliy va jismoniy barkamol bo'lib ulg'ayishlariga, ularda milliy

qadriyatlar va urf-odatlarga sodiq bo‘lib shakllanishlari uchun zamin yaratadi, ularning kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
- 3.“O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagি bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
4. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.
5. Grosheva I., Shivaldova N., Rizayeva X., Kuryayeva I., Nekrasova Y., Xaziyeva L. Ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” parsial dasturi. Toshkent-2022.
4. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Usmonova D., Ashrabxo’jayeva M., Rizayeva X., Nuritdinova L., Karimova F., Nurmuhamedova G., Muhamadaliyeva M., Musayeva G., Gayfulina F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)”. Toshkent-2018.
6. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Isxakova M., Kim N., Rizayeva X., Kayalova Y., Nuritdinova L., Maxmudova V., Vlasova Y., Buyanova N., Daukayeva A., Karimova F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish”. Toshkent-2018.
7. O’.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b. 2. Egamnazarova Sh. M. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” Ilim ziyo T.: 2016y.
8. Sodiqova SH.A. Maktabgacha ta’limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.